

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI**

TALLIBAYEV UMIDJON SHERGAZIYEVICH

**AXBOROT SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN MAMURIY
JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2024

Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации
Content of the doctoral (PhD) dissertation

Talibayev Umidjon Shergaziyevich Axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni takomillashtirish.....	3
Таллибаев Умиджон Шергазиевич Совершенствование административной ответственности за правонарушения в сфере информации	19
Talibaev Umidjon Shergaziyevich Improving administrative responsibility for offenses in the field of information.....	39
E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works.....	44

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI**

TALLIBAYEV UMIDJON SHERGAZIYEVICH

**AXBOROT SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN MAMURIY
JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Yu730 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti veb-sayti (www.mgju.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axmedov Davron Quvonovich
yuridik fanlar doktori, professor

Berdimuratova Gulnaz Murat qizi
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 32/30.12.2020. Yu.74.01 raqamli ilmiy Kengashning 2024-yil «___» _____ soat ___:___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel: +998971 230-32-71; faks +99871 230-32-50; Jxu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel: +99871 230-32-71; faks +99871 230-32-50)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____ da tarqatildi.

(2024-yil «___» _____dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

M.X.Rustambayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

N.I.Xayriyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

M.B.Usmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirishning ahamiyati ortib bormoqda. Bugungi kunda “Yer yuzida 8,7 milliarddan ortiq qurilmalar internetga ulangan va dunyo aholisining 4,62 milliarddan ortig‘i ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi hisoblanadi”¹. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, “Dunyoda axborot sohasidagi zarar yillik 6 trillion AQSh dollaridan ko‘proqni tashkil etib, bu 15 foiz har yillik o‘shish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. 2022-yilda shaxsiy axborotlar oshkor bo‘lishi tashkilotlarga o‘rtacha 4,35 million dollar miqdoridagi zarar keltirgan bo‘lsa, har 26 ta shaxsdan bittasi yolg‘on ma’lumotlar tarqatilishi natijasida zarar ko‘rgan”². Bu esa o‘z navbatida axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy ta’sir choralari kuchaytirish hamda javobgarlikni takomillashtirish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Jahonda ijtimoiy tarmoqlarda sodir etilgan axborot sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni ta’minlash masalalari bo‘yicha ushbu sohadagi tashkiliy-huquqiy muammolarni aniqlash va hal etishga qaratilgan tizimli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda, jahonda axborot xujumi 2020-yildan buyon yillik 125 foizga ortib borayotganligi³, axborotni muhofaza qilish va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni tartibga solish, huquqbuzarliklar bo‘yicha dalillar to‘plashni soddalashtirish hamda shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borish nihoyatda muhim o‘rin egallamoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilarining ma’lumotlari va shaxsiy hayoti, shu jumladan voyaga yetmaganlarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi ma’lumotlardan samarali himoya qilish bilan bog‘liq muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini izlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni faol rivojlantirish va bu jarayonlarda axborot xavfsizligini ta’minlash, shaxsiy ma’lumotlarni oshkor etilishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda yurtimizda yashayotgan har bir insonni shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlash borasida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 96-maqsadi “Internet jahon axborot tarmog‘idan to‘siqlarsiz foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, milliy internet makonida kiberxavfsizlikni ta’minlash hamda fuqarolarning internetdan foydalanish borasidagi savodxonligini oshirish”⁴ kabi vazifalar belgilangan. Bugungi kunda O‘zbekistonda birgina “Telegram” messenjeridan 30 milliondan ortiq foydalanuvchi, ijtimoiy tarmoqlardan esa xususan Odnoklassniki – 18 million, Facebook – 7,6 million, Instagram – 7,1 million, Vkontakte – 1,4 million foydalanuvchi mavjud⁵. Ushbu ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda turli huquqbuzarliklarni sodir etish vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Birgina 2023-yilning 9 oyi davomida sudlar tomonidan O‘zbekiston

¹Digital 2023: Global overview report // <https://datareportal.com/reports/digital-2023-global-overview-report>

²Headline Cyber Crime Statistics // The Latest 2024 Cyber Crime Statistics (updated February 2024) // <https://aag-it.com/the-latest-cyber-crime-statistics/>

³Crime worldwide - Statistics & Facts // <https://www.statista.com/topics/780/crime/>

⁴O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

⁵“Internet va ijtimoiy tarmoqlar hayotning ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda” // <https://senat.uz/events/post-399>

Respublikasi MJtKning 46¹-moddasida nazarda tutilgan “Shaxsiy hayotning daxlsizligini buzish” huquqbuzarligi bo‘yicha – 325 ta ish, 46²-modda “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish” bo‘yicha – 140 ta, 202²-moddasi “Yolg‘on ma’lumot tarqatish” bo‘yicha – 151 ta ma’muriy ish mazmunan ko‘rib chiqilgan¹. Statistik raqamlar tahlili, ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda sodir etilgan axborot sohasida ma’muriy huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun ma’muriy javobgarlikni kuchaytirish tizimini takomillashtirish lozimligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-apreldagi 400-I-sonli “Axborot olish kafolatlari va erkinliklari to‘g‘risida”, 2002-yil 12-dekabrda 439-II-son “Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to‘g‘risida”, 2003-yil 11-sentabrda 560-II-son “Axborotlashirish to‘g‘risida”, 2007-yil 15-yanvardagi O‘RQ-78-son “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”, 2017-yil 8-sentabrda O‘RQ-444-son “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”, 2019-yil 2-iyuldagi O‘RQ-547-sonli “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”, 2022-yil 15-apreldagi O‘RQ-764-son “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son “2021-2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortish masalalari va takomillashtirishning ayrim jihatlarini milliy olimlarimizdan A.A. Amanov, A.U. Anorboyev, A.R. Davronov, N.A. Nugmonov, S.S. Oripov, M.X. Rustambayev, I.R. Rustambekov, A.K. Rasulev, S.M. Selimanova va A.N. Yoqubovlar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlarida axborot sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortishning ilmiy-nazariy va tashkiliy-huquqiy jihatlarini E.V. Gorbacheva, N.T. Jafarova, D.B. Savchishkin, V.P. Talimonchik, M.A. Tulneyev va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Xorijiy olimlardan A. Adegov, M.V. Felisiano, A. MakGhi, K.M. Vashington, K.A. Veal, A. Vik va boshqalar axborot sohasidagi

¹Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan internet tarmog‘ida e‘lon qilingan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi sud ishlari statistikasi // <https://public.sud.uz/report/CONFLICT>

huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar¹.

Mamlakatimizda axborot texnologiyalari va xavfsizlik sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish, axborot huquqi shakllanishining nazariy va amaliy xususiyatlari, jinoiy sudlovda kiberjinoyat aspektlari sohasida tadqiqot ishini olib borilgan bo'lsa-da axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikka tortish masalalari, uning rivojlanishi va ijtimoiy shartliligi, inson huquqlariga tahdid, ma'muriy-huquqiy choralarni qo'llash, axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikka tortish masalalari kompleks o'rganilmagan, alohida monografik tadqiqot olib borilmagan.

Tadqiqot mavzusining tadqiqot bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "Axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy yo'nalishda doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni ta'minlashning paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari va ijtimoiy ehtiyojini o'rganish;

axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish;

axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikka tortadigan subyektlar tizimini va ular faoliyatining hozirgi holatini tadqiq etish;

axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni isbotlash jarayonida dalillar to'plashni tartibga solinganlik holatini tadqiq etish;

axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni ta'minlash bo'yicha xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va ularni milliy qonunchilikka joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va ularni qo'llash samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida O'zbekiston Respublikasida axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikka tortish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar olingan.

Tadqiqotning predmetini axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni ta'minlashning nazariy va huquqiy jihatlari, axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikka tortish amaliyotining hozirgi holati, shuningdek, konseptual yondashuvlar, axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

¹Ushbu va boshqa olimlarning ilmiy ishlari ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda – tarixiylik, mantiqiy-yuridik, formal, kuzatish, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil, statistik usullar, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, anketa so‘rovlari, statistik ma’lumotlar tahlili, funksional yondashuv, tizimlilik, ma’muriy huquqbuzarlik uchun ma’muriy javobgarlikka tortish xolatlarning tahlili, huquqni qo‘llash amaliyoti kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

shaxsning qadr-qimmati yoki obro‘cini kamsitishga olib keladigan yolg‘on ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida tarqatish singari ijtimoiy zararli qilmish uchun ma’muriy javobgarlikni belgilash zarurati asoslab berilgan;

huquqbuzarga sud qarorining aniq raqami va jarima miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorning ijrosini o‘z vaqtida ta‘minlash va shaxslarning ma’muriy qonunchilik sohasidagi huquqlarini ta‘minlash maqsadida telefon yoki boshqa aloqa vositalari orqali SMS, MMS, va shu kabi raqamli xabarlash tizimi orqali ogohlantirish zarurati asoslangan;

ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha ish yurituvda aniqlik va samaradorlikka erishish, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi bayonnoma va ma’muriy jazo tayinlash to‘g‘risidagi qarorlarni sifatli rasmiylashtirilishga erishish uchun, huquqbuzar, jabrlanuvchi, guvoh, xolisga tegishli bo‘lgan shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlarni (famiyasi, ismi, otasining ismi va tug‘ilgan sanasi) ma’muriy baynomaga yoki ma’muriy jazoni qo‘llash to‘g‘risidagi qarorga to‘g‘ri kiritish borasida vakolatli organ (mansabdor shaxs) xodimining shaxsiy javobgarligini belgilash zarurati asoslab berilgan;

idoralararo axborot almashinuvi yo‘li bilan ma’muriy huquqbuzarlik masalalariga oid axborotlarni huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan to‘plangan ma’lumotlarning aylanish tartibini takomillashtirish maqsadida elektron shaklda to‘plash, qayta ishlash, umumlashtirish, saqlash, tahlil qilish va himoya qilish zarurligi asoslab berilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlikni tasniflashning qonunchilik tizimini takomillashtirishga qaratilgan “Axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilanishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga ayrim o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksini “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzganlik” uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi yangi modda bilan to‘ldirish zarurligi asoslantirilgan;

ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda axborot sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashishning samaradorligini oshirish maqsadida ushbu turdagi huquqbuzarliklarni ijtimoiy zararini inobatga olgan holda ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish to‘g‘risidagi talablar qo‘yilishi mumkin bo‘lmagan moddalar ro‘yxatiga kiritish zarurligi asoslantirilgan;

axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy ishlarni ish yurituvchi Milliy gvardiya va ichki ishlar organlariga qayta taqsimlash zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo'llash amaliyotiga asoslangan, sotsiologik tadqiqotlar, anketa so'rovi (130 nafar sud va huquqni qo'llash amaliyoti xodimlari ishtirokida) o'tkazilgan, statistik ma'lumotlar va 300 dan ortiq ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ishlar va sud qarorlarining tahlili natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgan, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tkazilib, ular yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan, olingan natijalar vakolatli davlat idoralari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishdagi, xulosa, taklif va tavsiyalardan, huquqni qo'llovchi organlarning ma'muriy amaliyot faoliyatini takomillashtirishda, sohaga oid nazariy bilimlarni boyitishda va yangi ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda foydalanish mumkinligida ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik borasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishda, qonun ijodkorligida, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish va "Ma'muriy huquq", "Ma'muriy javobgarlik", "Jamoat xavfsizligi asoslari", "Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati", "Surishtiruv" kabi fanlarni o'qitishda, ushbu fanlar bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik materiallar tayyorlashda qo'llash mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilardan foydalanilgan:

shaxsning qadr-qimmatini yoki obro'sini kamsitishga olib keladigan yolg'on ma'lumotlarni, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatilganlik uchun ma'muriy javobgarlikni belgilash zarurligi to'g'risidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga va Jinoyat-protsessual kodekslari va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-658-son Qonuni 3-moddasi 4-bandida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasining 2023-yil 16-oktabrdagi 04/10-10-56-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmog'i orqali jabrlangan shaxslar haqida ma'lumotni qasddan buzib ko'rsatayotgan shaxslarga qarshi huquqiy ta'sir choralarni kengaytirishga huquqiy asos yaratgan;

idoralararo axborot almashinuvi yo'li bilan ma'muriy huquqbuzarlik masalalariga oid axborotlarni elektron shaklda to'plash, qayta ishlash, umumlashtirish, saqlash, tahlil qilish va himoya qilish zarurligi to'g'risidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyul kunidagi 431-son qarori bilan tasdiqlangan "Ma'muriy huquqbuzarliklar

to'g'risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida"gi Nizomning 16-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 10-oktabrdagi 12-15-90-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar yuzasidan to'plangan ma'lumotlarning aylanish tartibini takomillashtirishiga va shu orqali axborot sohasidagi huquqbuzarliklarni uchun ma'muriy javobgarlikni takomillashtirishiga xizmat qilgan; ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorning ijrosi o'z vaqtida ta'minlash uchun huquqbuzarga sud qarorining aniq raqami va jarima miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda uning telefoniga SMS orqali xabardor qilish zarurligi to'g'risidagi takliflar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyul kuni 431-son qarori bilan tasdiqlangan "Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida yagona elektron ish yurituv tizimi orqali ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritish tartibi haqida"gi Nizomning 30-bandida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 10-oktabrdagi 12-15-90-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi ma'muriy jazo choralari qo'llanilgan shaxslarni o'z vaqtida xabardor qilish va ular tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda jarimani ijrosi bajarilishini ta'minlashga huquqiy asos yaratgan;

huquqbuzar, jabrlanuvchi, guvoh, xolisga tegishli bo'lgan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni (familiyasi, ismi, otasining ismi va tug'ilgan sanasi) ma'muriy bayonnomaga yoki ma'muriy jazoni qo'llash to'g'risidagi qarorga to'g'ri kiritish borasida vakolatli organ (mansabdor shaxs) xodimining shaxsiy javobgarligi belgilash zarurligi borasidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyul kuni 431-son qarori bilan tasdiqlangan "Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida yagona elektron ish yurituv tizimi orqali ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritish tartibi haqida"gi Nizomning 57-bandini ishlab chiqilishida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 10-oktabrdagi 12-15-90-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi vakolatli organ (mansabdor shaxslar) xodimlarining ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ish yurituvda aniqlik va samaradorlikka erishish, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi bayonnoma va ma'muriy jazo tayinlash to'g'risidagi qarorlarni sifatli rasmiylashtirilishida mansabdor shaxslarga mas'uliyat belgilanishi uchun huquqiy asos yaratgan.

jamoat tartibi yoki xavfsizligiga tahdid soladigan, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida yolg'on ma'lumotlarni tarqatganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilash zarurligi borasidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga va Jinoyat-protsessual kodekslari va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-658-son Qonuni 3-moddasi 4-bandida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasining 2023-yil 16-oktabrdagi 04/10-10-56-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya tarmoqlari yoki Internet

jahon axborot tarmog'ida jamoat tartibi yoki xavfsizligiga tahdid soladigan faktlar va holatlar to'g'risida qasddan noto'g'ri axborotni bergan shaxslarga qarshi huquqiy ta'sir choralarni ko'rish uchun huquqiy asos yaratgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishining natijalari 8 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 5 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta (shundan 2 ta xorijiy) jurnallarda maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, uch bob, 6 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 151 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (falsafa doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikning nazariy va huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni belgilashning ijtimoiy zarurati, huquqiy tabiati va o'ziga xos xususiyatlari ilmiy asoslangan, shuningdek, axborot sohasidagi huquqbuzarliklarning rivojlanish tarixi, bugungi holati, axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni huquqiy tartibga solish masalalar atroflicha tahlil etilgan.

Mazkur bobda axborot tushunchasi va xususiyatlari, axborot xavfsizligini ta'minlash choralari, fuqarolarning axborot sohasidagi huquqlariga xavflarning manbalari ilmiy adabiyot va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili asosidan yoritilgan.

Axborot xavfsizligini ta'minlovchi chora-tadbirlar majmui O'zbekiston Respublikasi shaxs, jamiyat va davlatning dolzarb ehtiyojlarini amalga oshiruvchi muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Amalga oshirilgan o'rganishlar fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va qonuniy manfaatlarini, fuqarolarning axborot bilan foydalanayotganda xavfsizligini ta'minlash, o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda har tomonlama ko'maklashishning samarali mexanizmlarini shakllantirishga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatgan.

Shu bilan birga, muallif O'zbekiston Respublikasi hududida axborot

sohasini tartibga solish normalarning rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib chiqib, rivojlanish davrini to'rt bosqichga ajratdi – 1992-2002 yillar, 2003-2006 yillar, 2007-2015 yillar va 2016 yildan hozirgi kunga qadar bo'lgan davr.

Mazkur bobda, yurtimizga ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilar soni oshishi – ular tomonidan har xil vajlarga asoslangan holda qonun hujjatlarda ko'rsatilgan taqiqlar buzilishi holatlari ko'payishi ushbu harakatlari uchun javobgarliklarni qonunchilikka kiritish taqozo etishi ta'kidlangan.

Tadqiqot doirasida “Axborot resursi” va “axborot tizimi” tushunchalarining ijobiy va salbiy tomonlari ochib berilgan.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, *“Axborot” – bu tushunish va foydalanish uchun qulay shakldagi faktlar, hodisalar, obyektlar, jarayonlar to'g'risidagi g'oyalar, mavjud bilimlarga yangi elementlarni kiritish yoki turli xil moddiy vositalarda qayd etilishi mumkin bo'lgan va turli yo'llar bilan uzatilishi mumkin bo'lgan g'oyalar*”.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, *“Axborot manbai” – bu boshqa shaxslar yoki manfaatdor shaxslar kirishi uchun ma'lumot uzatiladigan yoki e'lon qilinadigan shaxs, tashkilot, jarayon yoki vositalar*”. Shuningdek, axborot manbai turli mavzular yoki mavzular bo'yicha bilimlar, ma'lumotlar, faktlar, fikrlar, statistika va boshqa turdagi tarkibni taqdim etishi mumkinligi tadqiqotchi tomonidan takidlangan.

Dissertatsiyaning **“Axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni amalga oshirish bo'yicha huquqni qo'llash amaliyotini tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida fuqarolarning axborot sohasidagi huquqlariga tahdidlar va ularni bartaraf etishga qaratilgan ma'muriy-huquqiy choralar, ularning tasnifi, uni ta'minlash bo'yicha ma'muriy-huquqiy choralari qo'llash subyektlar tizimi, shuningdek, faoliyatining bugungi holati ilmiy tahlil qilingan hamda muammolar aniqlanib, ularning xal etishga oid fikr va mulohazalar bildirilgan.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyatini yoritish doirasida, muallif axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikka tortish jarayonini uch bosqichga bo'lib ko'rib chiqqan:

birinchi bosqich, axborot sohasidagi huquqbuzarliklarni aniqlash;

ikkinchi bosqich, axborot sohasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha dalillar yig'ish jarayoni (ma'muriy ish yurituv);

uchinchi bosqich, ma'muriy jazo qo'llash jarayoniga ajratgan holda ilmiy tasniflangan va asoslantirilgan.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, *“shaxsning shaxsiy hayoti” - bu uning oilaviy hayoti, oilaviy rishtalari, do'stlari bilan munosabatlari, jinsiy va boshqa shaxsiy munosabatlari, biror narsani yoqtirishlari va yoqtirmasliklari, ijod erkinligi, o'zini namoyon qilish huquqi, uning hozirgi vaqta bo'lgan joyi*.

Shuningdek, tadqiqot doirasida sud amaliyotini o'rganilganda yolg'on axborot tarqatish, shaxsiy hayot daxlsizligini buzish va shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish huquqbuzarliklari bir biri bilan chambarchas bog'liqligi aniqlandi. Huquqbuzarliklarning bog'liqlik holatlari uch guruhga ajratilgan holda tasniflangan:

a) maqsad shaxs yoki tashkilotni obro'sizlantirish bo'lsa: yolg'on

axborotdan shaxs yoki tashkilotni obro'sizlantirish uchun foydalanish jarayonida shaxsiy hayot daxlsizligini buzish va shaxsga doir ma'lumotlarni oshkor etishda aks ettirilgan bo'lsa;

b) "doxing" ta'sir qilish vositasi sifatida: yolg'on axborotni tarqatish "doxing" bilan bir vaqtda ishlatilishi, bunda tajovuzkorlar ochiq manbalarda (masalan, Internet-forumlar, ijtimoiy tarmoqlarda) shaxsning shaxsiy ma'lumotlarini nashr etishda aks ettirilgan bo'lsa;

v) shaxsga doir ma'lumotlar orqali yolg'on ma'lumotlarni tarqatish: yolg'on ma'lumotlar shaxsga doir ma'lumotlardan shaxsning roziligisiz foydalanish orqali, masalan, ijtimoiy tarmoq profili yoki elektron pochta orqali tarqatilishida aks ettirilgan bo'lsa.

Muallifning ijtimoiy tarmoqlarda axborot sohasida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni aniqlashga oid masalalari bo'yicha izlanishlari davomida quyidagi muammolar aniqlandi:

*Birinchi*dan, anonimlik. Ijtimoiy tarmoqlarda taxalluslar ostida akkauntlar yaratish imkonini berganligi sababli, huquqbuzarning haqiqiy shaxsini aniqlashni qiyinlashtirishi;

*Ikkinchi*dan, soxta akkauntlar. Huquqbuzarlar tomonidan noqonuniy faoliyatni amalga oshirish uchun soxta akkauntlardan foydalanadilar, ushbu holat esa huquqbuzarning shaxsini aniqlashni qiyin va ko'p vaqt, hamda maxsus bilimlarni talab qilishi;

*Uchinchi*dan, ijtimoiy tarmoqlarning kengligi va globalligi. "Facebook", "Instagram", "Twitter" va boshqalar kabi tarmoqlar global darajada ishlatilishi, bu esa huquqbuzarlarni topishga harakat qilayotgan subyektlarning bir nechta yurisdiksiyalarda harakat qilishni qiyinlashtirishi;

*To'rtinchi*dan, ijtimoiy tarmoqlar bilan hamkorlik qilish. Huquqbuzarliklarni muvaffaqiyatli aniqlash uchun ijtimoiy tarmoqlar bilan bevosita hamkorligi talab qilinishi, ular aksariyat holatlarida huquqni muhofaza qilish organlari talablariga muvofiq kerakli ma'lumotlarni taqdim etishni istamasligi holatlari mavjudligi;

*Beshinchi*dan, axborotni tarqatish tezligi. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot tarqatishning bir zumda va kengligi tufayli, ko'pincha noto'g'ri yoki zararli ma'lumotlarning asl manbasini aniqlash qiyinligi;

*Oltinchi*dan, qonunchilikda aniqlik yo'qligi. Mamlakatimiz qonunlarida axborotga oid taqiqlar mavjudligi qaramay ushbu taqiqlar o'zining aksini O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida o'z aksini topmaganligi holatlari aniqlangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni takomillashtirish yo'llari**" deb nomlanib, unda xorijiy davlatlarning axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni amalga oshirish bo'yicha tajribasi tahlil qilingan, axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikning samaradorligini oshirishga qaratilgan, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilganda quyidagi asosiy jihatlar ko'zga tashlangan:

Yaponiyada muntazam ravishda har 3 yilda bir marta qonuniylikni ta'minlash maqsadida axborot sohasidagi qonun hujjatlarini rasmiy ravishda yangilab borish va ularni tartibga solishni yanada ta'minlash maqsadida hisobga

olinmagan omillarni aniqlash uchun qayta ko‘rib chiqish ishlari amalga oshirilishi belgilangan.

Yaponiya, Kanada, Germaniya va Frantsiyada yuridik shaxslarning javobgarligi tartibga solingan va qonun hujjatlarda axborot tarmog‘i yoki axborot provayderlarining xizmat ko‘rsatish litsenziyasini to‘xtatib turish shaklida maxsus jazo turlar aks ettirilganligi, hamda ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar egalari bo‘lgan yuridik shaxslarga ularning jahon aylanmasidan kelib chiqqan holda 4-5 foiz miqdorida jarima solish ham nazarda tutilgan.

Kanada va Germaniyada shaxsga doir ma‘lumotlar bilan tanishish huquqiga ega bo‘lgan shaxs va/yoki operator hamda uchinchi shaxslar, hatto ularning xizmat va mehnat faoliyati tugatilganidan keyin ham, shaxsning shaxsiga doir ma‘lumotlarini oshkor qilmaslik uchun barcha oqilona choralarni ko‘rish majburiyatini yuklatilishi aks ettirilgan.

Bundan tashqari dissertatsiyaning ushbu bobida amaldagi qonunchilik normalarini qo‘llash samaradorligini oshirish, ularni takomillashtirish, shu jumladan MJtKga yangi normalarni kiritish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar shakllantirilgan.

Ishning **xulosa** qismida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotning natijalari ilmiy-nazariy xulosalar, axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga doir takliflar va axborot sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma‘muriy javobgarlikni tartibga solinishi amaliyotini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar taklif va tavsiyalar keltirilgan.

XULOSA

Dissertatsiya tadqiqoti natijasida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar, qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir takliflar va huquqni qo‘llash amaliyotini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ilgari surildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Axborot sohasiga oid ilmiy qarashlar va tushunchalarni tahlil qilish natijasida quyidagi mualliflik ta‘riflari ishlab chiqildi:

Axborot - bu faktlar, hodisalar, obyektlar, jarayonlar to‘g‘risidagi tushunish va foydalanish mumkin bo‘lgan shakldagi, mavjud bilimlar yoki g‘oyalarga yangi elementlarni kiritadigan, turli xil moddiy vositalarda yozilishi mumkin bo‘lgan va turli yo‘llar bilan uzatilishi mumkin bo‘lgan g‘oyalar.

Axborot manbai - bu boshqa shaxslar yoki manfaatdor shaxslar kirishi uchun ma‘lumot uzatiladigan yoki e‘lon qilinadigan shaxs, tashkilot, jarayon yoki vositalar. Axborot manbai turli mavzular yoki mavzular bo‘yicha bilimlar, ma‘lumotlar, faktlar, fikrlar, statistika va boshqa turdagi tarkibni taqdim etishi.

Ijtimoiy tarmoq - bu odamlar o‘rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlarni yaratish uchun mo‘ljallangan maxsus ilova, onlayn platforma yoki veb-sayt bo‘lib, unda foydalanuvchilar tomonidan ommaviy ko‘rish va yuborish uchun fotosuratlar, audio va video materiallarni nashr etish mumkin.

Messenjer - bu tezkor xabar almashish, shuningdek, Internet orqali real vaqt rejimida (on-layn) foto, audio va video ma‘lumotlarni yuborish uchun maxsus dastur va veb-xizmat.

2. Axborot sohasini huquqiy tartibga solishning rivojlanish davrini to‘rt bosqichga shartli ravishda bo‘lingan.

Birinchi bosqich: 1992-yildan 2002-yilgacha.

Ushbu davrda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida telekommunikatsiya texnologiyalarining sust rivojlanganligi sababli axborot faqat og‘zaki va yozma shaklda talqin qilingan.

Ikkinchi davr: 2003-yildan 2006-yilgacha.

O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda 560-II-sonli “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi bilan axborot resursi tushunchasi kiritildi – unda bu axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma’lumotlar banki, ma’lumotlar bazasi ekanligi belgilandi va axborot tizimining bir qismi sifatida shakllantirildi, shunday qilib, qonun hujjatlarida ma’lumotlar elektron shaklda bo‘lishi qonunchilikda mustahkamlandi.

2004-yilda jismoniy shaxslarning shaxsiy ma’lumotlari haqidagi ma’lumotlar maxfiy ma’lumotlar toifasiga kiritildi.

Uchinchi davr: 2007-yildan 2015-yilgacha.

Bu davr axborot qonunchiligini to‘liq qayta ko‘rib chiqish bilan tavsiflanadi. Shuningdek, ushbu davrda O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 188²-moddasi “Voyaga yetmagan shaxsning ko‘ngil ochish (dam olish) joylarida tungi vaqtida bo‘lishiga yo‘l qo‘yish” va 191-moddasi “Qimor va boshqa tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar”ga “Internet” tushunchasi kiritildi. Shunday qilib, ushbu davrda butun Internet jahon axborot tarmog‘i O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarligi to‘g‘risidagi qonunchiligida aks ettirilgan.

To‘rtinchi davr: 2016-yildan hozirgi kungacha.

Bu davr O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida elektron axborotning hujjatlashtirilgan yoki og‘zaki axborotga nisbatan yuqori darajada xavfliligi qabul qilinganligi bilan tavsiflanadi.

3. Insonning shaxsiy hayoti bilan bog‘liq ilmiy qarashlar, milliy qonunchilik va xorijiy davlatlar tajribasi asosida quyidagi mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan:

Insonning shaxsiy hayoti - bu uning oilaviy hayoti, oilaviy aloqalari, do‘stlari bilan munosabatlari, jinsiy va boshqa shaxsiy munosabatlari, biror narsani yoki kimnidir yoqtirishi va yoqtirmasligi, ijodkorlik erkinligi, o‘zini ifoda etish huquqi, shuningdek uning hozirgi zamonda joylashgan joyi.

4. Yolg‘on ma’lumotlarning tarqalishi shaxsga doir ma’lumotlarning tarqalishi yoki shaxsning shaxsiy hayotining buzilishi bilan chambarchas bog‘liqligi aniqlandi. Ya’ni, yolg‘on ma’lumotlarning tarqalishi va shaxsiy hayotning buzilishi yoki shaxsga doir ma’lumotlarning tarqalishi quyidagicha o‘zaro bog‘liq bo‘lishi mumkin:

- maqsad shaxs yoki tashkilotni obro‘sizlantirish bo‘lsa;
- “doxing” (doxxing) ta’sir qilish vositasi sifatida;
